

ISSN 2181-5291

# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 3, 2021

[www.psixologiyabuxdu.uz](http://www.psixologiyabuxdu.uz)





# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL \* НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

3-sin 2021-yil. \* Выпуск 3. 2021 год.

**BOSH MUHARRIR – ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:**  
**BAROTOV SH. R.**

Psixologiya fanlari doktori, professor.

Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)  
Действительный член (академик) Международной Академии  
Психологических Наук

**TAHRIR HAY'ATI – РЕДАКЦИОННАЯ  
КОЛЛЕГИЯ:**

XAMIDOV O.X.

Buxoro davlat universiteti rektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
QAHHOROV O.S.

BuxDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
SHOUMAROV G.B.

(Bosh muharrir o'rinnbosari)  
psixologiya fanlari doktori, professor  
UMAROV B.M.

(Bosh muharrir o'rinnbosari)  
psixologiya fanlari doktori, professor  
KOZLOV V.V. (Rossiya)

psixologiya fanlari doktori, professor  
MALI'X S.B. (Rossiya)

psixologiya fanlari doktori, professor  
KOROBENYIKOV I.A. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KARIMOVA V.M.

psixologiya fanlari doktori, professor  
SAFOYEV N.S.

psixologiya fanlari doktori, professor  
BEKMURODOV M.B.

sotsiologiya fanlari doktori, professor  
KADIROV U.D.

psixologiya fanlari doktori, professor  
JABBOROV A.M.

psixologiya fanlari doktori, professor

NISHONOVA Z.T.

psixologiya fanlari doktori, professor  
IBODULLAYEV Z.R.

tibbiyot fanlari doktori, professor  
BEGMATOV A.S.

falsafa fanlari doktori, professor  
HUSEYNOVA A.A.

Falsafafanlari doktori, professor  
MUXAMEDOVA D.G.

psixologiya fanlari doktori, professor  
**MUHARRIRLAR – РЕДАКТОРЫ:**

Usmanova M.N. – psixol.fan.nom., dot.  
Muxtorov E.M. – psixol.fan.nom., dot.

Barotova D.Sh. – psixol.fan.nom., dot.  
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD), dot.  
Eshbekov T.U. – filol.fan.nom., dot.

Dilova N.G. – pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dot.

**TEXNIK MUHARRIRLAR – ТЕХ.  
РЕДАКТОРЫ:**

Jamilova B.S, Ostanov Sh.Sh,  
Rustamov Sh.Sh.

**MAS'UL KOTIB – ОТВ.**

**СЕКРЕТАРЬ**

Sobirova D.A. Psixologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD).



*Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna,*

*Buxoro davlat universiteti,*

*Pedagogika kafedrasi dotsenti*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## **NOSIRIDDIN TUSIYNING "AXLOQI NOSIRIY" ASARIDA YOSH DAVRLAR PEDAGOGIKASI VA PSIXOLOGIYASI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIII asarda yashab ijod qilgan olim va faylasuf Nosiriddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" kitobidan unumli foydalanib bola shaxsi pedagogikasi va psixologiyasi, uning dunyoga kelishi, ulg'ayishi hamda rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tasniflangan. Bundan tashqari bola kamolotida sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, uning ta'lim va tarbiya egallashi va kasb tanlashi borasida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** go'daklik, ilk bolalik, bolalik, osmirlik, ospirinlik davri, pedagogika va psixologiya, shaxs shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi.

**Аннотация:** В данной статье используется книга «Носирова Этика» ученого и философа Носир ад-Дин Туси, жившего и творившего в XIII веке, и классифицируются педагогика и психология личности ребенка, факторы, влияющие на его рождение, рост и развитие. В нем также говорится о создании здоровой социальной среды в развитии ребенка, его образовании и выборе карьеры.

**Ключевые слова:** младенчество, раннее детство, детство, юность, педагогика и психология, формирование личности, развитие и совершенствование.

**Annotation:** This article uses the book "Ethics of Nosiri" by the scientist and philosopher Nasir al-Din Tusi, who lived and worked in the 13th century, and classifies the pedagogy and psychology of the child's personality, the factors influencing his birth, growth and development. It also discusses the creation of a healthy social environment in the development of the child, his or her education and career choices.

**Key words:** infancy, early childhood, childhood, adolescence, pedagogy and psychology, personality formation, development and improvement.

O'rta asrlarda Mavarounnahr va Xurosonda tasavvuf allomalari bilan bir safda faylasuf olimlar yamutafakkirlar jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy hamda madaniy hayotida ulkan iz qoldirdilar. Bunday buyuk mutafakkirlardan biri Abu Ja'far Muhammad Nosiriddin Tusiyyidir.

Nosiriddin Tusi 1201 yilning 18 fevralida Xurosoning Tus shahri yaqinidagi Jahrun qishlog'ida tavallud topgan. Diniy va falsafiy ilmlarni 1216 yildan Nishopurda, shaharni mo'g'ullar bosib olganidan keyin (1222) esa, Tusda o'rgangan. 1228-55-yillarda ismoiliy hukmdorlar, jumladan, Ko'histon hokimi Nosiriddin va uning o'g'li Muyniddin saroyida xizmat qilgan. 1255-73 yillarda mo'g'ul hukmdorlari Xulogu va Abaqa huzurida[4] mas'ul lavozimlarni egallagan. 1274 yilda Bag'dodda vafot etган.

Tusiy, mineralogiya, tibbiyot, riyoziyot, falsafa, tabiatshunoslik, falakiyotva ayniqsa axloq tarbiyasiga oid asarlar hamda tarjima va sharhlar muallifi [1, 24], [6, 47]. U ko'pgina yunon olimlarining asarlarini arab tiliga tarjima qilgan [2]. Uning 150 ga yaqin asarlari va maktublari mayjud bo'lib, ularning ichida «Axloqi Nosiriy» asari ko'pgina tillarga tarjima qilinib [7, 27], tarbiya bobida keng e'tirof etiladi.

Kitobning yozilishining sababi haqida quyidagi ma'lumot keltiriladi. Tusiy Qo'histon viloyatning hokimi Nosiriddin Abulfath Abu Mansurning xizmatida bo'lar ekan bir majlisda taniqli olim, komil faylasuf Abu Ali Ahmad ibn Muhammad ibn Miskavayhning axloqning poklantirilishi haqida yozgan "At-tahorat" kitobidan suhbat boradi. Suhbat chog'ida hokim Tusiya shu go'zal kitobni istilohlarini o'zgartirish orqali, arab tilidan fors tiliga tarjima qilish lozimligi, bu zamonning odamlarining ko'pi odob libosidan mahrumligi, javohir kabi ma'nosib bo'lgan bunday qiymatli bir kiyim ularning fazilatini ziynatlantirsa, juda buyuk savob bo'lishini aytadi [3, 135]. Olim bu ishorani amr kabi qabul etadi va ishni bo'shaydi. Natijada "At-tahorat" kitobining tarjimasi bahonasida yuksak



axloqiy qiymatga ega yangi bir asar vujudga keladi. Asar hukmdor Nosiriddin Abulfath Abu Mansurning sharafiga «Axloqi Nosiriy» deb nomlanadi.

“Axloqi Nosiriy” asarida bola tarbiyasiga alohida to’xtalib o’tilgan. Asarning ikkinchi “Uy xo’jaligi ilmi haqida” nomli maqolasining to’rtinchisi faslida avlod boqib tarbiya etmoq qoidalari haqida qimmatli maslahatlar berilgan. Jumladan asarda alloma bola dunyoga kelganidan unga kerak bo’ladigan dastlabki narsalar haqida so’z yuritib, “bola bo’lgach ilk navbatda unga yaxshi bir ot qo’ymoq lozimdir. Nomunosib ot qo’ysalar, butun umri bo’yi bundan xijolat chekar, kayfiyatiz buziladi. So’ngra aqli va sog’lom bir doya topmoq lozimdir, chunki yomon odat va xastalikning ko’pi surʼatli bilan bolaga o’tar:

Sut emar bir ushoq tutmagan moya,

Tutmang siz, ahmoq, xasta bir doya,

Sut bilan badanga kirar bo’lsa ozor,

U, badandan, yolg’iz o’lganda chiqar! [5, 180]”, - deydi. Shu o’rinda, ilk bolalik davrida bolaga yaxshi ism va yaxshi doya kerakligi aytadi. Yaxshi nomdam maqsad, umri bo’yi shaxsning kamsitilishini oldini olish bo’lsa, doyadan maqsad sut orqali xayrli odat va xislatlarning o’tishini, ta’minlaydi. Tusiy, bola suttan ayrilgandan so’ngra (ilk bolalik davrida) hali axloq buzilishga vaqt bo’lmagani uchun uni tezda tarbiyalash, tartib-intizomga o’rgatishni boshlash lozimligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari bola, tabiatida bo’lgan tabiiy nuqsonlarga ko’ra, yomon odatlarga mayl eta olishi vaqtidan avval uning oldini olish, tabiatini nazarda tutib axloqini poklantirish va qaysi toza quvvat bolada o’zini avval ko’rsatsa, uning ham takomillashtirilishini oldindi o’ringa olish kerakligini ta’kidlaydi.

Olim: “bolada toza, idroki quvvatlardan eng avval uyalmoq, hayo alomatlari o’zini ko’rsatadi [5, 180]”, - deydi va asarda agar bolada hayo bo’lsa, aksar holda boshini pastga solib beadablik etmaydi, bu uning oliyanobligining isbotidir. Bu, shu demakdirki, uning nafsi chirkin amallardan jirkanib, go’zal ishlarga mayl ko’rsatar, bu alomot shu iste’dodning bolada borligidan dalolat etadi. Shunday bo’lsa bu bolaning tarbiyasiga maxsus fikr berish, hech bir narsani ayamaslik, iste’dodning so’nib ketishiga yo’l berilmaslig lozimligi borasida maslahat beriladi.

Tusiy tarbiyaning birinchi sharti sifatida, bolani uning tabiatini himoya qila olmaydigan odamlar bilan va narsalar bilan o’tirib-turmoqqa, o’ynamoqqa qo’ymaslik lozim, chunki bola nafsi sodda bo’ladi, atrofdagilarning xosiyatini tez o’zlashtiradi, deb ko’rsatadi va bolani mehribonlik va muhabbat tug’dirgan karomatlar bilan tarbiya etmoq lozimdir, ayniqsa aqlga, shuurga, idrokka ta’sir etadigan tushuntirmoq, anglatmoq yo’li bilan. Ammo, pul bermoq, havaslantirmoq, nasl-nasabga oid bo’lgan narsalar bilan emas, deydi. Bu yerda alloma, bola tarbiyasida faoliyatga ma’lum xususiyat orqali tarbiyaviy ta’sir e’tishni asoslab beradi. Quyida alloma fikridan foydalanib bola shakllanishida faoliyat, xususiyat va tarbiyaviy ta’sir kategoriyalari keltirilgan.

Jadval:

#### Bola shaxsining shakllanish mazmuni

Faoliyat	Xususiyat		Tarbiyaviy ta’sir vositasi
<b>Qalb</b>	mehribonlik	muhabbat	karomat
<b>Aql</b>	tushuntirmoq	anglatmoq	yo’l

Bundan so’ngra bolalik davrida esa odat-an’ana, xulq-atvor qoidalari, diniy vazifalarni o’rgatmoq, ularni amalga oshirishda rag’bat etmoq, tobe’ bo’lmaganda tanbeh bermoq, xayrli ishlarni uning yonida ta’riflamoq, zararli narsalarni esa yomonlamoqni maslahat beradi. Bolada yaxshi bir harakat ro’y berganda havaslantirmoq, kichik bir nuqson ko’rganda esa tanbeh berib oldini olmoq lozimligini aytib o’tadi.

Tusiy ko’p yemoq, ko’p ichmoq, qimmatbaho, zamonaviy kiyim kiymoqni bolaning ko’zidan uzoqlashtirish, ochko’zlik, ichkilikbozlik, maqtanchoqlik va boshqa bu kabi xosiyatlarni uning qalbiga yo’l topishga imkon berilmaslik lozim dib ta’kidlaydi. “Shundayki rozi bo’lib, qulog’i bunday narsalar bilan to’lib, takror etilganidan keyin odatga aylanar. Bunga qarshi chiqqanlarni, ziddini etganlarni, ayniqsa tengdoshlarini, qarindoshlarini yaqinlashtirmaslik kerak”[5, 181], - deydi.

Olim bola psixologiyasini quyidagicha tasvirlab: “Bolalarda yomon odatlarga, yomon amallarga nafrat uyg’otish lozim. Bola rivojlanishining ilk onlarida juda ko’p xatolarga yo’l qo’yadi, qabohatli ish ko’radi, ko’p zamon yolg’onchi, baxil, o’g’ri, chaqimchi, ters va o’jar bo’ladi, yaltoqliq qiladi,



aytganlardan qaytmas, boshqalarni ham zararli va yoqimsiz ish tutmoqqa da'vat etadi, so'ngra esa tanbeh va tarbiya yoshidan o'tadi" [5, 181], - deydi va shunday xulosaga keladi: "Demak, bolani beshikdan tarbiya etmoq lozimdir" [5, 182].

Undan so'ngra dars orgatmoq bosqichidan bahs yuritib, bolalar "ta'lim boshlaydilar, hikmatli kalomlar, tarbiyaviy sherlar yod oladilarki, o'rgatmoq istagan narsalari yodida qolsin, ma'nosini unutmasin" [5, 182], - deydi. Asardan o'sha davrga tegishli ta'lim mazmunini bilib olish mumkin. Jumladan Tusiy bolada o'rgatiladigan ta'lim mazmunini ketma-ketligini izohlab: "Avval "rajaz" so'ngra "qasida" o'qiydilar. Ishq, sharob, shahvat va ehtiros tarannum etgan g'azallardan, masalan, Imrul Qays, Abu Nuvas bilarning sherlaridan qochmoq lozimdir. Ularni zariflik va inson tabiatini noziklashtirishini hisob etganlar yanglishar, bunday sherlarning o'smirlarni buzhishini nazardan chiqaradilar" [5, 182], - deydi.

Endi olim tomonidan e'tirof etilgan va ta'lim mazmuni tashkil qiladigan "rajaz", "qasida" mazmuni va o'qitilishi maqbul bo'lman ayrim "g'azal" va "sherlar" mualliflari bilan yaqindan tanishamiz. Jumladan, rajaz (mustaf'ilun) – mazmunan o'zini ta'riflamoqdan iborat bo'lgan shoir turi. Qadim Sharqda maydonga kirgan pahlavonlar "rajaz" oqishni, o'zlarini tariflashni boshlaganlar "Rajazxonlik etmoq", ya'ni "o'zini tariflamoq" iborasi ham bu yerdan amalga kelgan. Qasida esa – birinchi ikki misrasi qofiyados, so'ngrasi esa misralar aro qofiyadosh bo'lgan madh, ta'rif, vasp, hajv, hikmat, falsafa, tabiatining tasviri va shu kabi mavzular doirasida yozilgan she'r turi.

Arab adabiyotida johiliya davrining ko'rkm shoirlaridan biri Imrul Qayd (Imraul Qays)dir. Uning oshiqona va sarkushona g'azallari ko'pdir. Keyingi arab shoiri VIII-IX asrlarda mashhur bo'lgan Abu Nuvas al-Hasanxondir. U o'z she'rlarida sharobni tariflagan. Shunga ko'ra Tusiy bundaylarning bolalarga o'qishini tavsija qilmaydi.

U: "Bolada yoqimli bir harakat ro'y berganda uni ta'riflab havaslantirmoq lozimdir, lekin aks hollarda har daqiqa urushib boshiga urmoq to'g'ri emasdir: "qabohatli ish qilibsan", balki bundaylarning xato, bilmaslik yuzidan etganini aytmoq yaxshidir, qo'pollashmasin. Yana bir marta takror etmasa, unga yopishmaslik kerak, takror etilsa, mahkam tanbeh etib, bunday ishlarning yaramasligini qattiq tushuntirish va ta'qqlash kerakdir" [5, 183], - deydi va bu o'rinda bolani tanbeh berish va so'ngra ta'qqlash lozimligini ko'rsatadi. Alloma shu o'rinda yana, bolani o'rinsiz urushmoqni odat etib har narsani ta'qqlashdan chekinmoq lozim, bu odat bolani, qo'pollashib, terslik qilib shu ishni yana bir bor qilmoqqa undaydi, chunki inson ta'qqlangan narsalarga havaskor bo'ladi, deydi va "bunday bo'lganda bola "nasihatga qulqoq osmoqdan bezar, nafrat etar, "qo'rkoq" emasligini ko'rsatish uchun bad amallarni boshlar, balki juda nozik hiylalarga qo'l urar" [5, 183], - deb ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, bola tarbiyasida birinchi navbatda shahvoniy quvvatni tarbiya etishni, yemoq tartib-intizomlarni o'rgatishni boshlamoq lozimligini uqtiradi va "yemoqdan maqsad sihhatdir, lazzat emasdir, chunki taom yashamoq va sog'lom qolmoq uchundir. U ochlik va suvsizlikni muolaja etgan dori-darmonga o'xshar, dorini mazza olmoq uchun totmaganlari kabi, taomni ham lazzat chekmoq uchun yemaslar" [5, 183], - deydi.

Olim bolaga sog'lom hayot muhitini tashkil qilishda quyidagi maslahatlarni berib o'tadi: "Xo'raklarni rangorang va turli xil hozirlab uni yemoqqa havaslantirmoq lozim emasdir, o'rtalik xo'rakka alishtirib ishtahasini sobitlashtirmoqqa, oddiy yemak bilan kifoyalantirib juda lazzatilariiga xasislik ko'rsatmaslik odatini tarbiya etmoqqa harakat qilishi kerak, ba'zan sekin yemoqqa o'rgatilsa, maslahatdir. Bu odat yo'qsillar uchun yaxshi bo'lsa, boylar uchun juda yaxshidir. Bolaga shom xo'ragini sahar yemagidan kop' bermoq lozimdir. Sahar yemagini ko'p yesa, uyqu bosar, zehni zaiflashar. Go'shtni oz yedirsalar epchillik, dadillik, shonlik, o'ynoqlik, tezkorlik va boshqalar uchun xayri bo'ladi. Holva, meva yemoqni qo'ymaslari kerakdir, bular qorin og'rishi va oshqozonning buzilishiga sabab bo'ladi. Xo'rak orasida suv ichmoqqa ijozat berilmaslik kerak, balog'atga yetmaganga sharob, mast etuvchi ichkiliklar ta'qqlanishi kerak, chunki bular uning nafsiga va badaniga zarar beradi, g'azab, jinnilik, shahvat va ehtirosini orttiradi", - deydi va yana: "Uni ichki majlislariga olib bormasliklari kerakdir. Albatta, olimlar, fozillar va shoirlar majlisi bundan istisnodir. Bunday majlislardan unga foyda keladi" [5, 184], - deb nasihat qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, alloma bola tarbiyasiga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarni keragicha asoslab bergen va bu fikr bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda faylasuf bola uchun sog'lom muhitni: to'g'ri ovqatlanish va yaxshi kishilar suhbatida



bo'lish, deb biladi.

Bundan tashqari asarda, bolaning noloyiq so'zlar eshitmoq, yengil hazillarga qulq osmoq, ahmoqliklarning shohidi bo'lmoqdan oldini olish kerakligi, ta'lim-tarbiya topshiriqlarini maromiga yetkazishi va to'liq charchamaguncha unga taom berilmaslik kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Faylasuf bolaga shunday tarbiya bermoq lozimdirki u: "hech bir narsani yashirmsin, bir narsani yashirmoq uning qabohatli ish ekanligini tushunishni ko'rsatar, u, bir qabohatli ishni yashirdimi, boshqa qabohatli ishlarni ham yashirishga jasorat etadi" [5, 184], - deydi. Bundan tashqari, ko'p yotoqda dam olishni ta'qiqlaydi va: "ko'p yotmoq zehnni zaiflashtirar, xotirani o'ldirar, badanni chalg'itar, insonni sust etar. Kunduz yotmoqqa qo'ymaslik, yumshoq, rohat kiyim kiymaslik, qiyin vaziyatlarga o'rgatish, yozda salqin sardoba va nozik pardalarga, qishda iliq o'tov va qalin mo'ynalarga o'rgatmaslik kerak" [5, 184], - deydi va ko'p yurmoq, harakat etmoq, ot minmoq, aziyat chekmoqqa ko'nikishi kerakligi, aksini ta'qiqlash kerakligi, o'tirib-turmoq qoidalari, jim turib-so'zlashmoq usullarini o'rgatish kerakligini ta'kidlaydi.

Asarda bola tarbiyasida, hammaga nisbatan tavoze kor bo'lmoq, yaqin odamlarga hurmat ko'rsatmoqni talqin qilish, o'zidan zaiflarga qo'l ko'tarib o'zidan kuchlilarga bo'yin egmoq hamda tengdoshlariga baxillik etmoqni taqiqlash, yolg'on so'zlashning oldini olish, istasa yolg'ondan, istasa to'g'ridan ont ichmoqqa yo'l berilmaslik, ont ichmoq, umuman, hamma uchun yomon odat ekanligini bayon qilish lozimligi haqida fikr yuritilgan.

Tusiy boladagi shakllanishi lozim bo'lган muloqot madaniyati borasida ham o'z qarashlarini bayon qilib o'tadi. Jumladan: oz so'zlash, sukul saqlash, so'raganda javob berish, buyuklarga qulq solishni o'rganish, noloyiq so'zlar, haqorat, o'rinsiz kalimalar ishlatmoqdan xijolat chekish, go'zal, zarif, yoqimli kalomlardan foyda etganda tarif etish, bunday so'zlashishga odat emoqqa rag'bat uyg'otish.

Olim bola maktabga bordimi u: "o'zini muallimiga, o'zidan yoshi ulug' bo'lганlarga hurmat va xizmat etmoqni bilishi kerakdir. Buyuk odamlarning avlodlari bunday xulq-atvor qoidalariiga juda ko'p muhtojdirlar" [5, 184], - deydi va bolaga ta'lim va tarbiya beradigan muallim ta'rifini keltirar ekan: "uning muallimi aqli, vijdonli, axloq me'yorlariga, bola ruhiyatini tanishgga, shirin so'zlashda, insofli raftorda, viqorli, ajoyib xatti-harakatda, poklik va tozalikda mashhur, shohlarning xosiyatidan, odat va an'analaridan, aysh-ishratlaridan, majlis va suhbatlaridan bexabar, jamoatning har tabaqasi bilan so'zlashishni bajaradigan, razil va olchoq odamlardan qochadigan bo'lishi kerak" [5, 185], - deydi. Bundan tashqari bolaga ta'lim va tarbiya dargohini tanlashda: "buyuk odamlarning yaxshi tarbiya ko'rgan, go'zal odatlar qo'lga kiritgan bolalari uning bilan bir maktabda o'qishi kerakdir, bezimasin va ulardan o'rgansin, boshqa shogirdlarni ko'rganda intilish amalga kelsin, bahsmunozaraga kirsin, ilmga havasi ortsin" [5, 185], - deydi. Muallifning yuqorida keltirilgan fikrlarida, bolaning o'qish faoliyatining boshlanishida ota va ona vazifalarini belgilab berilgan, ya'ni bolani yaxshi tarbiyalash, unga yaxshi muallim tanlash va yaxshi maktabda o'qishga qo'yish.

Tusiy endi, maktabda bola shaxsiga e'tibor qaratadi, bunda muallim ta'lim-tarbiya vaqtin jazolaganda baqirib faryod qilmaslik, yalinib yolvorishni boshlamaslik kerakligini aytib "qobiliyatsiz va zaif odamlar shunday etadilar" [5, 185], - deydi.

Asarda bo'yniga o'qishni olmayotgan, o'qishga befarq bolaga nisbatan: "Birinchi marta jazolash yengilroq bo'lsin, lekin shuni anglash kerakki, ko'zi qo'rqsin, u xatoni etmoqqa yana bir bor jasorati yetmasin" [5, 186], - deyiladi va maxsus sabab bo'limganda bolalarni urushishga yo'l qo'ymaslik, gunohlari bo'lganda esa bundan mustasno, yaxshi ishni bajarganda, ko'mak ko'rsatganda ta'riflash, mukofot berilishi lozimligi, insonlarga yordam etmoq uning qoniga singib, odatga aylanishi haqida so'z boradi. Bu yerda, alloma e'tiboridan bola tarbiyasining asosiy mohiyati bo'lган tarbiyaning rag'batlanirish va jazolash usullari ham chetda qolmagan.

Tusiy bu davrda bola "har vaqt o'ynamoq istasa, ijozat berish kerakdir, lekin o'zin go'zal bo'lishi kerakdir, charchatib holdan toydirmasligi, qonini qaynatmasligi, zehnni zaiflashtirmasligi, ta'lim va tarbiyasini qiyinlashtirmasligi kerakdir" [5, 186], - deydi. Chunki bola bu davrda o'zin faoliyatidan o'qish faoliyatiga endi qadam qo'yan bo'ladi va u bu faoliyatga asta sekinlik bilan kirishadi. Bu davrda o'zin va o'qish faoliyati uyg'unlikda olib boriladi.

Faylasuf bola hamisha "ota, ona, muallimga itoat etishi, ularga hamisha yuksak va hurmat ko'zi bilan boqib, ulardan hayiqmoqni talqin etmoq lozimdir, bu odat hamma uchun yaxshidir, joyonlar uchun esa juda go'zaldir" [5, 186], deydi va o'smir bu qonun asosida tarbiya etilar ekan fazilatlarga



muhabbat, razolatlarga nafrat uyg'onadi, nafsin shahvat va lazzatdan muhofaza etadi, bu borada behuda fikr sarf etmaydi va taraqqiyotning eng yuksak pallasiga chiqishga sabab bo'ladi, deb izohlanadi. Bundan so'ngra unga go'zal yashamoq, hol ahli bo'lmoq, samarali aylanmoq, xush so'zlamoq, oz dushman qozonmoq, ko'p do'st orttirmoq, karomatli va fazilatli odamlar bilan o'tirib-turmoqni o'rgatmoq lozimdir, deb maslahat beradi.

Olim o'smirlik va o'spirinlik davriga ta'rif berar ekan: "Shundayki bolalik davri o'tdi, odamlarning nima uchun va nimaga yashashlarini tushuna boshlaydi, u zamon unga boylikning, mol-davlatning, mulkning, tuproqning, qul, kaniz, yilqi, poda, gilam, to'shak va boshqalarning inson sog'ligi va yaxshi hayot kechirishi uchun ekanligini anglatish, sog'ligini asramoqni, xastalik va badbaxtlikdan uzoq bo'lmoqni, umur naqadar vafo etsa, shu qadar bu qoidani saqlab rohatda yashamoqni, badaniy lazzatlarga nafsiy aziyyatlarni aralashtirmaslikni maslahat ko'rmoq lozimdir" [5, 186], - deydi va agar "ilmga ilgarilab ketsa, aytganimiz kabi, avvaliga tadrijan axloq darsini bermoq, so'ngra esa hikmat nazariyotiga o'tmoq lozimdirki, bolalikda yod olgan va taqlidchanlik (imitasiya) yo'li bilan qo'lga kiritgan bilimlarning ma'nosini anglasin, o'zi ham bilmasdan qozongan saodatning naqadar buyuk ekanligini tushunsin, buyuklarga tashakkur etsin, o'zi (bu ilm bilan) sevinsin" [5, 187], - deb izohlaydi.

Alloma o'smirni kasbga yo'naltirish masalalarini ham chetlab o'tmaydi. U: "Ilk navbatda bolaning tabiatiga, nimaga qodir ekanligiga nazar etmoq, aql farosotiga fikr bermoq, mushohada natijasida uni tabiatida qaysi san'atga va ilmga ko'p mayl borligini muayyanlashtirmoq, so'ngra esa shu ish bilan ham mashg'ul ettirmoq vojibdir, chunki hammaning butun kasb va san'atga qobiliyati ayni bo'lmas, yo'qsa insonlarning hammasi eng sharofatli san'at bilan mashg'ul bo'ladi" [5, 187], - deydi va bu fikrni davom ettirib "Tabiatlarida bo'lgan bu farqlar va ziddiyatlarda, iste'dod turli xilligi va qobiliyatlarda chuqur bir sir, nozik bir hikmat bordirki, bashariyatning mavjudligi, jamiyatning davomiyligi ularga bog'liqdir. Kimning nimaga qobiliyati mavjud bo'lsa, uning bilan mashg'ul bo'lsa, tez natija beradi, buyuk san'atkor bo'ladi, aks taqdirda zahmat behuda ketadi, umr puch bo'ladi" [5, 187], - deb ta'kidlaydi.

Tusiy, qaysi fanni o'rganmoq, u sohada ixtisos sohibi bo'lmoq istasa, u fan bilan aloqasi bo'lgan butun ilmlar va san'atlar bilan tanish bo'lmoqqa havas ko'rsatishi kerakligi, masalan, yozuv-chizuv sohasida mutaxassis bo'lmoq istagan xattotlikni, notiqlikni, mirzolikni, kotiblikni, xatiblikni va bu kabi narsalarni bilishi kerakligi, go'zal she'rlar o'qimoqni, shirin naqlar, mazali rivoyatlar, tuzli hikoyatlar, kulgili latifalar so'zlashmoqni bajara olishi, devon hisoblaridan va boshqa aloqador ilmlardan, adabiy fanlardan boshi chiqmasligi, imkon bo'lganda, qachonki qolganlarni o'rganishdan ham voz kechmasligini lozimligini olg'a suradi. "Chunki bilim o'rganmoqda loqaydlik eng murdar va eng tahlikali xosiyatdir" [5, 187], - deydi.

Uning qarashlarida, agar bolada bir san'atni egallash qobiliyati topilmagan bo'lsa, lozim bo'lgan asbob va sharoit bo'lmasa, uni shu san'atni o'rganmoqqa majbur etmoq lozim emas, chunki san'at va kasb fanlarida "o'rgatmoq va o'rganmoq tizimi" [5, 187] bordir. Bu yerda har ishni boshlar ekan yuksak diqqat, sabr, mehnat, iroda va izchillik talab etilishi lozimligi uqtiriladi va yana bu yerda sakrab oldinga o'tishlarni, tashlab oldinlab ketishga yo'l bermoq, bir narsani o'rganmasdan, boshqasini o'rganishni boshlab bo'lmaydi, deyiladi.

Olim tomonidan, har fanning o'qitilishida tabiiy iste'dodni rivojlantirgan, sog'likka zarar bermagan, zehnni charxlagan, zakoni yoritgan, zavqni orttirgan usullardan foydalanish tavsiya etiladi. U: "Kasb odatiga aylanishi kerakdir" [5, 188], - deydi.

Bundan tashqari olim, "san'atlardan birini ishlatalishga o'rgatilishi, uning bilan hayot kechirishga majbur etilishi kerakdir, qo'ygin jilolantirib tajribasini orttirsin, past martabadan eng yuqori darajaga chiqarsin, nafisliklariga nafisliklar qo'shsin, nazariy asoslarini topsin, bundan tashqari pul topmoq yo'llarini o'rgansin, yashamoq qoidalaridan xabardor bo'lsin, ishlarni idora etmoq ustaligini egallasin" [5, 188], - deydi va og'lonlarni tarbiyalash qoidasi shunday, qizlarga ham loyiq va muvofiq bo'lgan bu kabi usullarni tatbiq etmoq lozim, deb ko'rsatadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, Nosiriddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asari bola shaxsi va uning tarbiyasi uchun muhim manbadir. Unga ko'ra, go'dak dunyoga keldimi unga yaxshi ism qo'yish va yaxshi doya tanlash kerak. Ilk bolalaik davrida tartib - intizomga o'rgatishni boshlash lozim. Bolada namoyon bo'layotgan xususiyatlarga ogoh bo'lib, uni yaxshi odatlarga o'rgatish lozim. Bola go'zal ishlarga mayl ko'rsatsa, bu alomot bolada iste'dodning borligidan dalolat beradi. Buning



uchun, bolaga maxsus e'tibor qaratilib, iste'dodining so'nib ketishiga yo'l qoymaslik lozim.

Bolalik davrida uning tarbiyasiga ta'sir qiladigan narsa va hodisalardan uzoqda tutish kerak. Uning qalbini mehr va muhabbat, aqlini tushuntirish va anglatish yo'llari orqali tarbiyalash darkor. Bolada yaxshi bir harakat ro'y berganda havaslantirib, kichik bir nuqson ko'rganda esa tanbeh berib oldini olmoq lozim. Bolada hamisha yaxshi sifatlarni tarbiyalab, yomon sifatlarni oldini olmoq zarur. Bolada ta'lim olish boshlanganda ta'lim mazmuniga e'tibor qaratish, uztozlarning hurmatini joyiga qo'yishni o'rgatish, yaxshi muallim va maktab tanlash kerak. Bolaga sog'lom muhit yaratishda, to'g'ri ovqatlanish va yaxshi kishilar bilan o'tirib turishiga e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari bola ko'p uxlamasligi va sog'ligiga foydali harakatlar bilan shug'ullanishi darkor.

O'smirlikda sog'ligini asramoq, xastalik va xavf-xatardan uzoq bo'lmoq, vaqtini va umrni qadriga yetmoqni anglatmoq hamda yomon ijtimoiy muhitdan uzoqlashtirmoq kerak. Ilmda ilgarilab ketsa tadrijan axloq darsini keyin hikmat darsini berish lozimki, u bolalikda yod olgan va taqlidchanlik yo'li bilan egallagan bilimlarning ma'nosini anglasin. Bolaning qiziqishini kuzatib u qaysi kasbga qiziqishi baland bo'lsa o'shang ayo'naltirmoq muhim, chunki o'shanda yaxshi natija qo'lga kiritiladi. Qaysi fanga qiziqishi bo'lsa o'sha fanga daxldor bo'lgan fanlarni ham o'rganmog'i lozim. O'smirni sog'likka zarar bermagan, zehnni charxlagan, zakoni yoritgan, zavqni orttirgan usullardan foydalanib tabiiy iste'dodini rivoflantirish kerak.

Bugungi kunda, asardagi ushbu yondashuvlar jamiyatning barcha kishisi uchun foydalidir. Jumladan, bola shaxsini qamrab olgan oila hamda uzlusiz ta'lim tizimida keng foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, ushbu nasihatlar bugungi kunda o'z mohiyatini yo'qotmagan va ta'lim tarbiya nazariyasi bilan uyg'undir.

### **Adabiyotlar:**

1. Aghatehrani Morteza. Khajah Nasir Al-Din Tusi on the Meta-Mysticism of Ibn Sina (PhD) Dissertation, State University of New York at Binghamton, 2000. – 186 pp.
2. Amin, Wahid M. Naṣīr al-Dīn al-Ṭūsī and the Avicennan tradition : metaphysics and mental existence. Thesis (Ph.D.) University of Oxford, 2016.
3. Dabashi, Hamid. «Khwajah Nasir al-Din al-Tusi: The philosopher/vizier and the intellectual climate of his times». Routledge History of World Philosophies. Vol I. History of Islamic Philosophy. Seyyed Hossein Nasr and Oliver Leaman (eds.) London: Routledge. 1996. – P. 529;
4. Seyyed H. Badakhchani. Contemplation and Action: The Spiritual Autobiography of a Muslim Scholar: Nasir al-Din Tusi (In Association with the Institute of Ismaili Studies. I. B. Tauris (December 3, 1999).
5. Tusi Xacə Nəsimreddin Tusi. Əxlaqi-Nasiri. / Farscadan tərjume edəni, ön sözü və şəchlərin müallifi: Rəhim Sultanovun. Bakı, «Lider Nəşriyyat», 2005. – 280 b.
6. Мирааб Алиреза Ризи. Сопоставительный анализ нравственных взглядов в педагогических произведениях Абу Хамида Газали и Насриддина Туси: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.01 / Мирааб Алиреза Ризи. – Душанбе, 2014.- 164 с.
7. Пак Мостафа Хосейн. Учения Насриддина Туси о воспитании и их использование в системе общеобразовательных учреждений Ирана : диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.01 / Пак Мостафа Хосейн. – Душанбе, 2014.- 153 с.

*Мундариэза/Содержание/Contents*

<b>3</b>	<b>Раупов Сойиб Сайдович</b> Коррупция ва унга карши курашнинг долзарб муаммолари Corruption and the crucial issues of struggle against it
<b>8</b>	<b>Козлов Владимир Васильевич, Бевзенко Игорь Александрович,</b> Выявление базовых факторов психологической свободы человека, как ключевого производственного ресурса в условиях постиндустриальной экономики — интегративный подход Revealing the basic factors of human psychological freedom as a key production resource in a post-industrial economy - an integrative approach
<b>16</b>	<b>Каримова Васила Маманосировна, Омонов Шерали Иброхим ўғли</b> Рекламани идрок этишда шахс қадриятларининг этнопсихологик асослари Ethno-psychological foundations of personality values in the perception of advertising
<b>21</b>	<b>Кадиров Камолидин Батирович</b> А.Р.Луряининг ўзбекистонда амалга оширган тадқиқотлари: таҳлил ва хуносалар A.R.Luria's researches in uzbekistan: analysis and conclusions
<b>30</b>	<b>Инагамова Лола Усманбековна</b> Научно-теоретические основы стрессоустойчивости у молодых руководителей Scientific and theoretical foundations of stress resistance among young leaders
<b>35</b>	<b>Файзиева Маевуда Худаярова</b> Конструктив психологик ҳимоянинг хусусиятлари Features of constructive psychological protection
<b>45</b>	<b>Юлдашев Санжар Рузимуродович</b> Болалар савдосига қарши кураш: хуқукий ва психологик жиҳатлар Combating child trafficking: legal and psychological aspects
<b>50</b>	<b>Абдуллаева Дилбар Зоиржон қизи</b> Шахс гендер-психологик хусусиятлари муаммосининг ўрганилиш холати The state of the study of the problem of gender and psychological characteristics of the individual
<b>57</b>	<b>Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna</b> Nosiriddin Tusiyning "Axloqi nosiriy" asarida yosh davrlar pedagogikasi va psixologiyasi Pedagogy and psychology of youth in the work of Nosiriddin Tusi "Akhloqi nosiriy"
<b>63</b>	<b>Кодирова Одина Джурбаева</b> Талабаларда эмоционал интеллектни таълим жараёнида ривожлантиришнинг психологик детерминатларини эмпирик ўрганилиши Empirical study of psychological determinants of the development of emotional intelligence in students in the educational process
<b>71</b>	<b>Худойкулова Гулшиода Баҳроновна</b> Гурухларда психологик тренингларни ташкил этишда этник хусусиятларнинг аҳамияти The importance of ethnic characteristics in the organization of psychological training in groups
<b>75</b>	<b>Жумаева Мехрибо Абдуваҳитовна</b> Педагог инновацион фаолиятининг функциялари Functions of pedagogical innovative activity
<b>80</b>	<b>Jaqsimuratova Elmira Sarsenovna, Saparov Shing'is Baxievich,</b> Xalq an'analari asosida katta maktabgacha yoshdagи bolalarda qiyamat yo'nalishini shakllantirish omillari va psixologik-pedagogik shart-sharoitlar Factors of formation of value orientation and psychological and pedagogical conditions in preschool children on the basis of folk traditions
<b>84</b>	<b>Муратова Шоиста Норбоваевна</b> Никоҳ олди омилларининг йигитларни оиласи ҳаётга тайёрлашдаги ижтимоий-психологик имкониятлари Socio-psychological opportunities of premarital factors in preparing young men for family life
<b>90</b>	<b>Абдуқаҳхорова Гулноза Абдурасуловна</b>